

**Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish  
muammosining yoritilish mazmuni**

**Hojiyeva Nasiba Bahodirovna**

**Osiyo xalqaro universiteti**

**Annotatsiya**

Ushbu ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish muammosining yoritilishi mazmuni yoritib berilgan. O'quvchilarni boshlang'ich sinfdagi texnologiya ta'limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va ruhiy tayorlash, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayorlashlardan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** texnologiya darslari, kreativ, kompetensiya, ishlab chiqarish, milliy dastur, rivojlantirish, zamonaviy texnologiya

**Kirish:** O'zbekistonning mustaqillikka erishgani, har tomonlama jadallik bilan rivojlanib borayotgani, Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilish boshlab berdi. Darhaqiqat, Prezidentimiz "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi" deb ta'kidlab o'tdilar.

Texnologiya darslari o'quvchilarga tafakkur, diqqat, ijodiy tasavvur etish, mehnatga muhabbatini rivojlantirishda imkom beradi. Shuningdek texnologiya darslari o'quvchilarni dunyoqarashlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Undan tashqari texnologiya ta'limi o'quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish kabi ta'limiy maqsadlarga xizmat qiladi.

Hozirda umumta'lim maktab boshlang'ich sinflar oldiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ta'lim mazmuni fan texnikaning eng yangi yutuqlari bilan boyitishga, ta'lim tarbiya jarayonida texnologiya ta'limining ro'lini o'stirish va bolalarni tarbiyalash uchun ota-onalarning, o'qituvchilarning ma'suliyatini o'stirishga qaratilgan. Bu o'z

navbatida texnologiya ta'limi oldiga murakkab ma'suliyatli vazifalar qo'yadi. Vujudga kelgan imkoniyatlardan mehnat o'qituvchisi kasbini har tomonlama rivojlanishi uchun to'liq imkoniyatini beradi. Mehnat ta'limi mutaxassis tayyorlashni o'z maqsadi qilib qo'ymaydi, balki u o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun vosita hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflardagi texnologiya ta'limi tarbiyasi va ma'lumoti, maktabda mehnat asosini namoyon bo'lishi va uning o'zagi bo'lib, u bolalarning bilimi, ishlab chiqarish faoliyati, o'zaro yordam ko'rsatish, estetik va jismoniy rivojlantirish jarayonidagi mehnat kuchi haratlarini qamrab oladi. Boshlang'ich ta'limi texnologiya ma'lumotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yigit va qizlar mehnatining nazariy va amaliy hamda samarali, eng oddiy asosiy negizlari va tarkibiy qismlarini, umumlashgan mehnat malakalarini bilish va amaliy faoliyat usullarini egallashga qaratilgan.

1932-yilda boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv dasturlari va tartibi to'g'risidagi qarorida maktablarda fan asoslarini fanlardan foydalanib o'tish ishlab chiqildi. O'quv rejasida boshqa o'quv fanlari bilan bir qatorda mehnat ta'limi ham mustaqil fan bo'lib kirdi.

1933-yilda maktablarda mustaqil o'quv fani sifatidagi mehnat ta'limi tugatildi.

1952-yilda mehnat ta'limiga jamoatchilik e'tibori maktab boshlang'ich sinflarda ta'lim va mehnat tarbiyasini rivojlantirishni zarurligi ko'rsatildi.

1954-yilda mehnat ta'limi boshlang'ich sinf o'quv rejasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vazifalaridan biri sifatida kiritilgan.

2018-yildan esa mehnat ta'limi texnologiya ta'limi bilan almashtirildi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta Osiyodan o'tgan qadimiy buyuk Ipak yo'li Xitoy, Hindiston shaharlari bilan bog'lanib, madaniyat va sanoatni rivojlantirishga hamda ilmga bo'lgan qiziqishga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat qilishiga munosabatini o'zgartirib raqobatga arzigulik o'z-o'ziga ko'rsatish orqali qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarishga va hunarmandchilikka va tikuvchilikka qiziqishlarini takomillashtiradi. Texnologiya ta'limi o'qituvchilar rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy, jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijalarga ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma'lum sohadagi

ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlariga ongli ravishda kasb fanlarga hamda jamiyat va shaxs farovonligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

Texnologiya ta'limining mazmuni esa shu natijalarga to'la bog'liqdir, ya'ni shu vazifalarga ko'ra belgilanadi. Masalan, ta'limni umumiy mehnat bilan birga ko'rishni ta'minlash zarurligi boshlang'ich sinfdagi o'qitish mazmuniga jumladan, mehnat ta'limi mazmuniga qator talablar qo'ydi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari imkoniyatiga qarab unumli mehnatni o'z ichiga olish kerak .

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining unumli mehnati ularning o'quv faoliyatlariga, tarkibiga qo'shib ketishlari kerak.

3. Unumli mehnat mazmunida bolalarning yosh imkoniyatlari, mehnat ta'limi vazifalari, ishlab chiqarish muhitni harakatini hisobga olishi kerak.

4. Maktab boshlang'ich sinflariga ta'limning ishlab chiqarish malakasini berish bilan tugallanishi kerak.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning amaliy faoliyatlariga asosiy e'tibor beriladi, bunda o'quv vaqtining 80-85 % ajratiladi.

Mamlakatimiz kelajagini qurishda eng katta berilayotgan e'tibor maktablarimizning infratuzilmasi, ta'limda sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilmoqda. Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ham o'rni, roli benihoya katta. Shuning uchun bugungi kun o'qituvchisi zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi va ayni damda ushbu texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq eta bilishi juda muhimdir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi dunyoqarashini o'stirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon eta oladigan, xalqaro tadqiqotlarda munosib o'rinlarni egallay oladigan, erkin ishritirokchiga aylantirish, bugungi zamon talabining eng muhim masalalaridan biridir. Buning uchun esa ular ilm olmog'i, tinmay o'qishi, o'z ustida ishlashi va eng asosiysi, yaqin do'sti kitob bo'lmog'i joizdir.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni o'qitish, tahlil qilish, kompozitsiyani yaxlit anglagan holda matnning asosiy ma'nosini yoritib berish, asarda ifodalangan qahramonlar, ularning hayot tarzi, voqea tasvirlangan joy nomlari ifodalab nazariy va ilmiy jihatdan to'g'ri asoslanishi, o'quvchida shu asarni yaxlit tushuna olishi, mulohaza yuritishi asarning mazmunini anglashiga yordam beradi. Hikoyani o'qitishdagi nazariy asoslar shuningdek, bugungi kundagi hikoya va uni o'qitishdagi



VOLUME-2, ISSUE-1

yondashuvlar, olimlarning hikoyani o'qitishdagi turli metodik izlanishlari bu bobda o'z aksini topgan. Hikoyaning kelib chiqish tub asoslari, boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi mazmunan boy ayrim hikoya yozgan adiblarimizning hikoyalardan namunalar asoslanib keltirilgan. Umuman olganda, adabiy matn ustida ishlash, tahlil qilish va bu borada ilgari surilgan fikrlar, ularning nazariy asoslari darsliklardagi topishmoq, qissa, ertak, hikoya, she'r kabi nasriy va she'riy uslubda yozilgan asarlar, ularning boshlang'ich sinf darsliklaridagi qamrovi, farqli jihatlari, o'qitish metodikasidagi umumiy fikrlar haqida so'z yuritilgan.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
2. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.
3. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS* jurnali, 1(1), 209-209.
4. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching the Science of " Education" in Primary Grades. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 369-372.
5. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. *Modern Science and Research*, 2(10), 855-857.
6. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.
7. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O'QITISHNING ASOSIY METOD VA VOSITALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 332-338.
8. Hojiyeva, N. B. (2023). MODERN METHOD IN TEACHING MOTHER LANGUAGE LESSONS-USING THE CACOGRAPHY METHOD. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 434-439.
9. Hojiyeva, N. B. (2023). INCREASING THE INTEREST OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING TECHNOLOGY IN PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 430-433.

VOLUME-2, ISSUE-1

10. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Principles of Teaching The Science of" Education" In Primary Classes. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 366-368.
11. Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 494-499.
12. Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 468-472.
13. Ne'matovna, T. Z. (2023). "BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI" MAZMUNI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 324-331.
14. Tursunova, Z. (2023). USING INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(10), 777-779.
15. Ne'matovna, T. Z. (2023). Boshlang'ich Sinflarda Ot So'z Turkumini Izchillikda O'rgatish Metodikasi. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 389-391.
16. Ne'matovna, T. Z. (2023). BOSHLANG'ICH SIFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI.
17. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS.
18. Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research* , 1(3), 127-131. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/76>
19. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 132-134.
20. Shahnoza Rustamovna, N. (2023). UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTION. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 378-382.
21. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, 2(10), 333-336.
22. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

VOLUME-2, ISSUE-1

23. Sitara Akbarovna Ikromova. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599)*, 1(9), 50–54.
24. Akbarovna, I. S. (2023). Study of the Formation of Ideological Immunity By Foreign and Russian Researchers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 235-239.
25. Akbarovna, I. S. (2023). Adolescence during Destructive Behavior Appearances the Problem Learning Condition. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599)*, 1(9), 105-109.
26. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2020, Volume: 10, Issue: 5.
27. Gafurovna, L. S., & Pirniyazova, N. V. (2023). A System for Developing The Skills of A Future Primary School Teacher in the Use Of Digital Educational Resources. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 258-262.
28. Gafurovna, L. S. (2023). Mechanism for the Use of Digital Educational Resources by Future Primary School Teachers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 123-128.
29. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
30. Maxmudova, N. (2018). THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE INNOVATIVE TRAINING PROCESS. *Экономика и социум*, (3 (46)), 34-36.
31. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.
32. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.
33. Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. *Innovation in Science, Education and Technology*.



VOLUME-2, ISSUE-1

34. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (pp. 60-62).
35. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 121-123).
36. Oktam's, S. M. (2023). "Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization". American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 104–108.
37. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 484-486.
38. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKIOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.
39. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444>.
40. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOG-TARBIYACHISINING TA'LIM TARBIYA JARAYONINI REJALASHTIRISH FAOLIYATI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 292–299.
41. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). MODERN IN FORMING SPEAKING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN APPROACHES. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 347–352.
42. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). INVALIDITY IN CHILD EDUCATION IS THE BASIS OF DEVIANT BEHAVIOR. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 342–346.